



TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

D.E.Toshtemirov

Guliston davlat universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri, p.f.n., dotsent

Abstract. The article presents recommendations regarding the specifics of using innovative approaches in the educational process. It provides information on the content, composition and implementation of innovative approaches, comments on the changes that will occur as a result of introducing innovative processes into the education system.

Keywords: educational process, innovative approach, competence, educational competence, future specialist.

Annotatsiya. Maqolada ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlariga oid tavsiyalar bayon qilingan. Innovatsion yondashuvlar mazmuni, tarkibi va joriy etilishiga oid ma'lumotlar, innovatsion jarayonlarning ta'lim tizimiga joriy etilishi natijasida bo'ladigan o'zgarishlar haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, innovatsion yondashuv, kompetentlik, o'quv-bilish kompetentsiyasi, bo'lajak mutaxassis.

Mamlakatimizda bugungi kunda har tomonlama kamol topgan, yuksak kasbiy madaniyatga, ijodiy, ijtimoiy faollikka ega bo'lgan, jamiyat, davlat, oila oldida o'z javobgarligini his etadigan kadrlarni tarbiyalash masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: "Hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy echimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'yimoqda" – deb ta'kidlagan [1].

Ta'lim tizimida innovatsion yondashuv asosida talabalar o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi texnologiyalar va metodlarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish natijasida pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi, o'quv jarayonining o'zgarishi, pedagogik nazariyaning o'zgarishi, o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi, talaba faoliyatining yangilanishi, pedagogik



texnologiyaning o'zgarishi, ta'lim mazmunining yangilanishi, o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi, ta'lim tizimi boshqaruvning o'zgarishi, ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishi yuzaga keladi [2].

Innovatsion jarayonlarning ta'lim tizimiga joriy etilishi natijasida yangi g'oyalarning tug'ilishi, yaratuvchanlik, yangilik kiritish, yangiliklarni hayotga tadbiq etish, muayyan sohalardagi yangiliklarning turg'un xizmat qilishi kabi bosqichlari mazmuni, ta'lim sohasidagi innovatsion jarayonlarning stixiyali va tizimli turlari, innovatsion jarayonlar qonuniyatlari takomillashtirib boradi.

Ta'lim jarayoniga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlar bir necha tarkibiy tuzilishga ega bo'lib, quyidagilardan tarkib topadi:

Motivatsion-maqсадli yondashuv – turli xil ta'limiy yangiliklarning yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, ilg'or xorijiy ta'limiy yangiliklar va ularni o'zlashtirish, mahaliy shart-sharoitlarni hisobga olib, amaliyotda ulardan foydalanishga doir bilim, ko'nikma, malakalarni tezkor egallashga yo'naltirish, o'z faoliyatlarida ta'limiy yangiliklarni faol qo'llash bo'yicha tavsiyalar berish.

Faoliyatli yondashuv – o'z faoliyati davomida orttirgan tajribalari, qobiliyatlari, imkoniyatlariga asosan ta'limiy yangiliklardan foydalanishda samaradorlikka erishish.

Kompetentli yondashuv – mustaqil ravishda bilimlarni egallash faoliyatini tashkillashtirish, refleksiya, ijodkorlik, jismoniy va ruhiy jihatdan o'zini boshqara olish ko'nikmalarini egallash, o'z-o'zini uyushtirish va rivojlantirish kabi qobiliyat va layoqatlarni shakllantirish.

Tizimli yondashuv – shaxsning rivojlanishida ma'lum bir tartibga solingan, harakatdagi va yagona boshqaruvdagi umumiy maqsadni jipslashtiruvchi va muhit bilan yaxlitlik o'zaro harakatlarini amalga oshirish.

Texnologik yondashuv – yangiliklarni qo'llashda ko'zlangan natijalarga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, bosqichma-bosqich amalga oshirish.

Kreativ yondashuv – har qanday muammoli vaziyatni echimini tezkor topish qobiliyatini o'stirish, yangi tajribalarni egallash, harakatning yangi usullarini topish, tashabbus ko'rsatish, yangi g'oya yoki takliflar ishlab chiqish va ilgari surish.



Kompetentlik tushunchasi nazariy bilimlar va kasbiy ko'nikmalarni, shaxsiy sifatlarni faoliyatda samarali qo'llay olishni ifodalaydi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislar kompetentligining asosi sifatida talabanning o'quv-bilish kompetentligi nazarda tutiladi. O'quv-bilish kompetentligi kasbiy va maxsus kompetentliklar rivojlanishining samaradorligini ta'minlaydi, bu esa uning rivojlanishini zamonaviy ta'limning ustuvor vazifasi deb hisoblashga imkon beradi. O'quv-bilish kompetentligi talabanning mustaqil bilish faoliyati sohasidagi, shu jumladan, mantiqiy, uslubiy, umumiy o'quv faoliyati elementlari, haqiqiy kognitiv ob'ektlar bilan bog'liq bo'lgan kompetentliklar majmui sifatida qaraladi.

O'quv-bilish kompetentsiyasi deganda talabalarning mustaqil bilish faoliyatiga tayyorligi, o'quv-bilish kompetentsiyasi ostida esa bu kompetentsiyani egallash, o'z-o'zini rivojlantirish, kasbiy shakllantirish istagi tushuniladi [3].

O'quv-bilish kompetentligi tarkibiy komponentlar asosida rivojlanadi:

motivatsion komponent – talabalarning o'z o'quv ehtiyojlari, maqsadlari va faoliyat mazmuni va natijasi haqidagi tasavvurlarini anglashni o'z ichiga oladi; o'quv faoliyatiga faol qo'shilishga, yangi narsalarni o'rganishga yo'naltirish; kompetentlikni namoyon etishga ijobiy turtki beradi;

kognitiv komponenti – bilish faoliyatining vositalari va natijalarini tahlil qilishni ta'minlaydi uning shakllanishining barcha bosqichlarida tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash va umumlashtirish qobiliyati talab qilinishini ko'rsatadi;

faoliyat komponenti – bilish vazifalarini, umumiy ilmiy va xususiy-sub'ekt bilish faoliyati usullarini, umumiy ta'lim ko'nikmalarini mustaqil hal etishga tayyorlik; talabalarning o'quv-bilish faoliyatini maqsadga muvofiq belgilash, rejalashtirish, tahlil qilish, aks ettirish, o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini egallashlari;

kreativ komponent – talabalarning ishlab chiqarish faoliyati ijodiy ko'nikmalariga egaligi, voqelikdan bevosita bilim olish qobiliyati, nostandart vaziyatlarda harakat usullariga egaligi, muammolarni echishning turli usullarini o'z ichiga oladi, ya'ni tadqiqot ko'nikmalaridan foydalanish bilan bog'liq bilish vazifalarini mustaqil hal qilishga tayyorligini ifodalaydi.



Talabalar o'quv-bilish kompetentligining eng muhim sifatlari mustaqillik, bilish faoliyati, o'quv jaranidagi kamchiliklarni bartaraf qilishga tayyorlik va vazifa bo'yicha qaror qabul qilishda samaradorlik hisoblanadi. Mustaqillik darajasining oshishi talabanning o'z faoliyatining motivlari, maqsadlari, usullarini anglashiga va talabanning pedagogik ta'sir ob'ektidan o'z faoliyatining sub'ektiga aylanishiga yordam beradi. Bu sifatlarni shakllantirish talabalarning o'quv-bilish faoliyati natijasida yuzaga keladi, shu sababli talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish muhim ahamiyatga ega sanaladi.

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarning o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirish kasbiy tayyorgarlik jarayonida talaba shaxsining rivojlanishida asosiy o'rinni egallaydi. Kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida bo'lajak mutaxassisga bilimga bo'lgan motivatsion va qadriyat munosabatini, mavzuga bo'lgan ishtiyoqini uzatishni amalga oshira olishi kerak, shu bilan talabalarning ma'lum ijobiy munosabatini modellashtiradi. Buning uchun, birinchi navbatda, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari kasbiy malakaga ega bo'lishi kerak, shuningdek, o'qitiladigan sohasidagi maxsus bilim va ko'nikmalar, ilmiy mavzu sohasida chuqur bilim va keng bilim berish, nostandart fikrlash, innovatsion taktika va strategiyani egallash, ijodiy muammolarni hal qilish usullari; psixologik, pedagogik, kommunikativ va ijtimoiy-tashkiliy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishlari talab qilinadi.

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarning o'quv-bilish kompetentligini samarali rivojlantirish muayyan tartibda pedagogik shart-sharoitlar mavjudligini taqozo etadi.

Innovatsion yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi:

Huquqiy-me'yoriy ta'minot – umumiy va kasbiy fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari, o'quv dasturi, ishchi o'quv dasturi, va barcha o'quv-me'yoriy hujjatlar.

Ilmiy-pedagogik ta'minot – malakali, etakchi professor-o'qituvchilar, o'z sohasini chuqur biladigan metodistlar, mas'uliyatli texnik xodimlar.



Metodik-texnik ta'minot – didaktik vositalar majmuasi (ma'ruza matnlari, taqdimot slaydlari, tarqatma materiallar, ish qog'ozlari, o'quv topshiriqlari, amaliy ko'rsatmalar, nazorat-sinov savollari, jihoz, mexanizm, qurilma, asbob-uskunalar).

Axborot – dasturiy ta'minot – ta'lim jarayonini avtomatlashtiruvchi vositalar (internet tarmog'iga ulangan zamonaviy kompyuterlar) ta'lim platformasi, elektron darslik mobil ilovalari, o'quv qo'llanma va o'quv-uslubiy majmualar dasturlari, videomateriallar [4].

O'qitish vositalari talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar, test topshiriqlari, hisoblash vazifalari, kompyuter va multimedia vositalari, internet texnologiyalari [4].

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislar o'quv-bilish faoliyatining tashkil etilishi natijasida turli sohalarga kompetentli, kasbiy layoqatga ega soha mutaxassislari tayyorlanishiga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 10 b.
2. Raximov Z.T. Innovatsion yondashuv professional ta'lim tizimi rivojlanishining muhim omili sifatida G'G' Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. – Toshkent, 2021. – № 4. – 8.
3. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Hamidov J.A. Kasb ta'limi metodikasi. Darslik. Toshkent "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. 282 b.
4. D.E.Toshtemirov. O'quv jarayonida raqamli texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Monografiya. Guliston: "Universitet", 2024. - 180 b.